



IMPLEMENTATION OF THE 2005 STATE PROGRAM “THE YEAR OF HEALTH” IN JIZZAKH REGION: ANALYSIS, RESULTS, AND THE ROLE OF WOMEN

Nargiza Ismatullayevna Bobobekova

Historical Sciences

Doctoral Student of QarDU

ismatullayeva88@mail.ru

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: public health, Year of Health, Jizzakh region, preventive medicine, maternal and child health, infectious disease prevention, sanitary-epidemiological stability, medical infrastructure, social protection, reproductive health, primary healthcare, state programs, women’s participation.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article presents a comprehensive scholarly analysis of the implementation of the 2005 State Program “Year of Health” in Jizzakh region, Republic of Uzbekistan. The study examines the program’s key directions, including the promotion of healthy lifestyles, strengthening maternal and child health protection, supporting the elderly and socially vulnerable groups, and enhancing the prevention of infectious diseases. Considerable attention is given to the modernization of medical infrastructure, improvements in epidemiological resilience, and the implementation of sanitary and preventive measures across the region.

The effectiveness of the measures carried out in Jizzakh region is thoroughly assessed, revealing the institutional impact of the program on the development of the regional healthcare system. Findings indicate that the program served as an essential foundation for reinforcing preventive medicine, improving healthcare service quality, and advancing public health indicators. The research additionally highlights the significant contribution of women professionals whose active engagement enhanced the overall efficiency and long-term outcomes of the program’s implementation.

2005-YIL “SIHAT-SALOMATLIK YILI” DAVLAT DASTURINING JIZZAX VILOYATIDA IJROSI: TAHLIL, NATIJALAR VA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI

Nargiza Ismatullayevna Bobobekova

Tarix fanlari

QarDU doktranti

ismatullayeva88@mail.ru

Qarshi, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Sog‘liqni saqlash, Sihat-salomatlik yili, Jizzax viloyati, profilaktik tibbiyot, ona va bola salomatligi, yuqumli kasalliklar profilaktikasi, sanitariya-epidemiologik barqarorlik, tibbiy infratuzilma, ijtimoiy himoya, jismoniy tarbiya, ommaviy sog‘lomlashtirish dasturlari, reproduktiv salomatlik, birlamchi tibbiy xizmat, sog‘lom turmush tarzi, davlat dasturlari samaradorligi, xotin-qizlar faoliyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2005 yilda O‘zbekistonda amalga oshirilgan “Sihat-salomatlik yili” Davlat dasturining Jizzax viloyatidagi ijrosi ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida dasturning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, keksalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, yuqumli kasalliklar profilaktikasi, tibbiy infratuzilmani modernizatsiya qilish va sanitariya-epidemiologik barqarorlikni ta‘minlash yo‘nalishlari qamrab olingan. Viloyatda amalga oshirilgan chora-tadbirlarning samaradorligi tahlil qilinib, dasturning sog‘liqni saqlash tizimi rivojiga ko‘rsatgan institutsional ta‘siri yoritilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, dastur Jizzax viloyatida profilaktika, tibbiy xizmat sifatini oshirish va aholi salomatligini mustahkamlashda muhim poydevor vazifasini bajargani aniqlandi. Shuningdek, sohada faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning dastur samaradorligini ta‘minlashdagi o‘rni tahlil qilingan.

РЕАЛИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПРОГРАММЫ 2005 ГОДА «ГОД ЗДОРОВЬЯ» В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ: АНАЛИЗ, РЕЗУЛЬТАТЫ И РОЛЬ ЖЕНЩИН

Nargiza Ismatullaevna Bobobekova

Исторические науки

Докторант КарГУ

ismatullayeva88@mail.ru

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: здравоохранение, Год здоровья, Джизакская область, профилактическая медицина, материнство и детство, профилактика инфекций,

Аннотация: В данной статье представлено научное исследование исполнения Государственной программы «Год здоровья» 2005 года в Джизакской

санитарно-эпидемиологическая
устойчивость, медицинская
инфраструктура, социальная поддержка,
репродуктивное здоровье, первичная
медико-санитарная помощь,
государственные программы, деятельность
женщин.

области Республики Узбекистан. В рамках
исследования проведён всесторонний
анализ мероприятий программы,
направленных на формирование здорового
образа жизни, укрепление охраны
материнства и детства, поддержку
пожилых людей и социально уязвимых
групп населения, а также
совершенствование системы профилактики
инфекционных заболеваний. Особое
внимание уделено модернизации
медицинской инфраструктуры,
повышению эпидемиологической
устойчивости региона и реализации
санитарно-профилактических мер.

В работе оценена результативность
мероприятий, осуществлённых на
территории области, и выявлено их
институциональное влияние на развитие
региональной системы здравоохранения.
Согласно полученным результатам,
программа стала важным фактором
укрепления профилактического
направления медицины, повышения
качества медицинских услуг и улучшения
показателей общественного здоровья в
Джизакской области. Дополнительно
рассмотрен вклад женщин-специалистов,
чья профессиональная деятельность
способствовала повышению
эффективности реализации программы и
обеспечению её устойчивых результатов.

Kirish. Fuqarolarning sogʻligini saqlash va mustahkamlash nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, siyosiy muammo hamdir[1.13-b]. Ushbu ustuvor davlat siyosatidan kelib chiqib, 2005-yilning Oʻzbekistonda “Sihat-salomatlik yili” deb eʼlon qilinishi mamlakatda sogʻliqni saqlash sohasini institutsional rivojlantirish, profilaktik tibbiyotni kuchaytirish va aholining ijtimoiy sogʻlomlashuvini taʼminlashga qaratilgan davlat miqyosidagi strategik dastur sifatida tarixiy ahamiyat kasb etdi. Mazkur tashabbus 2004-yil 15 dekabrda F–2095-sonli Prezident Farmoyishi[2.33-v] hamda 2005-yil 25 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining 30-sonli qarori[3] asosida amalga joriy etilgan boʻlib, uning ijrosi respublika hududlari, xususan Jizzax viloyatida[4.14-v] kompleks ravishda taʼminlangan. Mazkur maqolada dasturning barcha yoʻnalishlari bilan bir qatorda, uning ijrosida xotin-qizlar faoliyatining oʻziga xos oʻrni alohida ilmiy tahlil qilingan.

Dasturning ustuvor maqsadlari aholi salomatligini muhofaza qilish va yaxshilash, profilaktikaga asoslangan tibbiy xizmatni kengaytirish, sanitariya-epidemiologik barqarorlikni ta'minlash, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, shuningdek, sog'liqni saqlash infratuzilmasini zamonaviy talablarga mos ravishda modernizatsiya qilishdan iborat edi. Ilmiy nuqtai nazardan, mazkur dastur Jizzax viloyatida sog'liqni saqlash tizimining institutsional sifatini oshirish, tibbiy xizmatlarning hududlar bo'yicha barqarorligini ta'minlash hamda aholining salomatlik ko'rsatkichlarini yaxshilashda katta imkoniyat yaratdi. Dastlab dastur bandlarida ko'zda tutilgan vazifalarni bajarishga viloyatimiz bo'yicha 3 milliard 199 million 733 ming so'm va 2 million 298 ming 135 AQSH dollari sarflanishi rejalashtirilgan. 2005-yilning 5 oylik natijalari tahlil etilganida esa Jizzax viloyatida dastur ijrosini ta'minlash uchun 1 milliard 860 million so'm mablag' o'zlashtirilganligi ma'lum bo'ldi[5.4-b].

Muhokama va natijalar. Quyida dastur ijrosining asosiy yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar ilmiy tahlil asosida yoritiladi.

1. Sog'lom turmush tarzi va tibbiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar

Jamiyatda profilaktikaga asoslangan salomatlik madaniyati shakllantirilishi davlat dasturining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, Jizzax viloyatida ushbu yo'nalishda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

-Ta'lim muassasalari, mahallalar va mehnat jamoalarida sog'lom turmush tarziga oid zamonaviy bilimlar va tibbiy gigiena madaniyatini shakllantirishga qaratilgan seminar, trening va ma'rifiy tadbirlar, konfereyalar o'tkazildi, ("Jozibador tabassum" o'quv-tarbiyaviy dasturi, "Maftunkor buyuklar olami", "Viloyatimizni, shahrimizni, tumanimizni yuksak sanitariya madaniyati o'lkasiga aylantiramiz" ko'rik-tanlovlari, "Sog'lom turmush tarzi va turmush madaniyati", "Valeologik tarbiyaning ilmiy-amaliy asoslari")[6.20-v];

-Ommaviy axborot vositalari orqali aholining sog'lom turmush tarziga oid madaniyatini, qarashlarini yuksaltirishga xizmat qiladigan maxsus video, radio-roliklar, tele-radio ko'rsatuvlar va maqolalar tashkil etildi. Jumladan, "Sog'lom bo'ling", "Farzandlari sog'lom yurt", "Zahiradagi sportchi", "Sog'lom bo'lsam-polvon bo'laman", "Mahallamiz stadioni", "Umid yulduzlari" kabi mavzulardagi ko'rsatuvlar va maqolalar turkumlari muntazam berib borilganligini arxiv materiallari orqali bilishimiz mumkin[7.18-v]. Shuningdek, "Jizzax haqiqati"- "Djizakskaya Pravda" gazetalarda sihat-salomatlik mavzuidagi eng yaxshi badiiy publisistik asarlar va "Oyning eng yaxshi maqolasi" uchun tanlovlar e'lon qilib borilgan.[8.19-v];

-Xalq tabobati Sharq mutafakkirlarining salomatlik borasidagi merosi bilan uyg'un holda profilaktik madaniyatni rivojlantirish amaliyoti yo'lga qo'yildi;

-O‘zbekiston Qizil yarim oy jamiyati viloyat kengashining 3 ta Markazi negizida 150 kishini qamrab oladigan sanitariya-gigienik tarbiyalash va shikastlanganlarga dastlabki yordam ko‘rsatish bo‘yicha kurslar tashkil etildi[9.21-v];

-Salomatlik oyliklari tayyorlandi va va ularni izchil tashkil etish ta‘minlandi. (Xalqaro salomatlik kuni, Xalqaro chekishga qarshi kuni, Giyohvandlikka qarshi kurashish kuni, OITSga qarshi kurashish kuni, Donor kuni, Xalqaro sil kasalligiga qarshi kurashish kuni);

-Sanitariya madaniyati, shaxsiy gigiena, oziq-ovqat xavfsizligi va turmush muhitini tozaligiga oid targ‘ibot ishlari keng qamrovda tashkil etildi.

Bu choralar aholining tibbiy madaniyatini oshirish, profilaktikaga asoslangan sog‘lom hayot falsafasini shakllantirishda muhim omil bo‘ldi.

2. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, reproduktiv salomatlikni yaxshilash va oilani sog‘lomlashtirish: kompleks yondashuv

Davlat dasturi doirasida Jizzax viloyatida ona va bola salomatligini mustahkamlash borasida tizimli mexanizmlar ishlab chiqildi:

-Bolalarni majburiy emlash bilan qamrab olish yuqori darajaga yetkazildi. Qariyb 90 foiz, bu esa 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida boshqariluvchi yuqumli kasalliklar hamda katta yoshdagi bolalar va katta yoshdagi aholi o‘rtasidagi bo‘g‘ma, ko‘k yo‘tal, qoqshol, qizamiq, sil, ichterlama, meningit, gripp, o‘lat, sil, quturish kabi kasalliklar tarqalishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etdi;

-Tug‘ma patologiyalarni erta aniqlash va davolash tizimi (gipotireoz, fenilketonuriya va b.) amaliyotga joriy etildi;

-Yozgi oromgohlarda bolalarning sog‘lomlashtirish ishlari tashkil etildi (kam ta‘minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning bolalari -Jizzax shahridan 20 nafar, har bir tumandan 15 nafar, jami 200 nafar bola; Shahar va tumanlar tibbiy muassasalarida dispenser nazoratida turgan maktab o‘quvchilari[10.24-v] -Shahar va tumanlar tibbiy muassasalarida dispenser nazoratida turgan maktab o‘quvchilari-Jizzax shahridan 20 nafar, har bir tumandan 15 nafardan , jami 200 nafar bola qamrab olingan[11.22-v]);

-Viloyat reabilitatsiya shifoxonasida har bir shahar va tumanlardan 10 nafardan, jami 130 nafar 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarni hamda 130 nafar tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish rejasi[12.23] ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etildi. Ushbu rejaga muvofiq tug‘ish yoshidagi ayollar to‘liq flyuorografiya tekshiruvidan o‘tkazildi. Bolalar, o‘smirlar, tug‘ish yoshidagi va homilador ayollar kamqonlikni bartaraf etish maqsadida temir moddasini saqllovchi dorilar bilan ta‘minlandi;

-Tumanlar markaziy shifoxonalari tarkibidagi bolalar va tug‘ruq bo‘limlari zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlandi;

-Tumanlar markazidan uzoq hududlarda yashayotgan tug'ish yoshidagi ayollarni va bolalarni joylardagi qishloq vrachlik punktlarida tor doiradagi mutaxassislar ishtirokida tibbiy ko'rikdan o'tkazish, aniqlangan bemorlarni shifoxonalarda, sihatgohlarda sog'lomlashtirish rejasi ishlab chiqildi. Ushbu reja asosan Baxmal, G'allaorol, Yangiobod, Zomin, Arnasoy, Mirzacho'l, Forish, Zafarobod tumanlarini qamrab olindi[13.23-v];

-Reproduktiv salomatlik madaniyati bo'yicha ayollar o'rtasida o'quv-seminarlar o'tkazildi, kontrasepsiya vositalari bilan ta'minlash mexanizmi kuchaytirildi;

-Faoliyat ko'rsatayotgan o'quv-ishlab chiqarish markazini Oilaviy tarbiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markaziga aylantirish, hamda muammoli bolalari bo'lgan ayollar uchun qo'shimcha markaz tashkil etildi. Bu chora-tadbirlar viloyatda ona va bola salomatligini muhofaza qilish siyosatining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

3. Keksalar, nogironlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini tibbiy qo'llab-quvvatlash

Jizzax viloyatida ijtimoiy zaif aholi qatlamini salomatlik yo'nalishida qo'llab-quvvatlash kompleks tarzda yo'lga qo'yildi:

-Keksa fuqarolar, urush va mehnat faxriylari, nogironlar uchun sanatoriy-kurort muolajalari uchun davlat hisobiga yo'llanmalar ajratildi (-Viloyat Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasiga qarashli sihatgohlarga kamida 50 kishi; -Kasaba uyushmalari va idoraviy sihatgohlarga - kariyb 50 kishi; -N.A.Semashko nomidagi fizioterapiya va kurortologiya ilmiy-tadqiqot institutiga 30 nafar[14.25-v]);

-Nogironligi bo'lgan shaxslarni protez-ortopediya vositalari (har bir tumandan 10 nafar, Jizzax shahridan 20 nafar, jami 150 kishi[15.26-v]), eshitish apparatlari (har bir tumandan 2 nafar, Jizzax shahridan 4 nafar, jami 30 kishi) va nogiron aravalari (har bir tumandan 3 nafar, Jizzax shahridan 5 nafar, jami 44 kishi[17.25-v]) bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi;

-1350 nafar yolg'iz keksa fuqaro uyda ijtimoiy-dam olish xizmatlari bilan qamrab olindi;

-Ko'zi ojizlar, o'rnidan jilolmaydigan bemorlar uchun maxsus tibbiy xizmat ko'rsatish kengaytirildi.

Ushbu faoliyat aholining ijtimoiy adolat, tibbiy barqarorlik va teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

4. Ijtimoiy xavfli va yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish

Dastur ijrosi doirasida yuqumli va ijtimoiy xavfli kasalliklar profilaktikasi yo'nalishida quyidagi choralar amalga oshirildi:

-Sil kasalligini erta aniqlash va davolashga qaratilgan DOTS strategiyasi[18.7-b] to'liq joriy etildi. Imtiyozga ega 8000 nafar bemor[19.29-v] silga qarshi dori vositalari bilan bepul ta'minlandi;

-VICH/OITS bo'yicha aniqlash, profilaktika va mutaxassislar tayyorlash jarayonlari kuchaytirildi;

-Internat va "Mehribonlik uyi" tarbiyalanuvchilari to'liq profilaktik ko'riklardan o'tkazildi, aniqlangan holatlar yuzasidan shifokorlar nazorati o'rnatildi.

Bu tadbirlar viloyatda epidemiologik barqarorlikni saqlash va aholining salomatlik xavfini kamaytirishga xizmat qildi.

5. Sog'liqni saqlash infratuzilmasini modernizatsiya qilish

Davlat dasturi doirasida Jizzax viloyatida tibbiy infratuzilmani takomillash maqsadida byudjetdan 3950,0 million, byudjetdan tashqari va homiylik mablag'laridan 3280,0 million, grantlar hisobidan 626,7 million, jami 7856,7 million so'm mablag' o'zlashtirilib[20.5-v], muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilgan:

-Qishloq vrachlik punktlari, markaziy shifoxonalar, bolalar bo'limlari, laboratoriyalar va shoshilinch yordam bo'limlari kapital va joriy ta'mirdan chiqarildi. Jumladan, Dastur asosida buyudjet va homiylik mablag'lari hisobidan Forish tumanida "Mojrum"[21.5-b], Baxmal tumanida "Dangara" qishloq vrachlik punktlariga yangi binolar qurildi. 2005 yilning o'zida viloyat bo'yicha qurilib, ta'mirlanib ishga tushirilgan qishloq vrachlik punktlarining soni 20 ta[20.13-b]ni tashkil etgan. Bu albatta tizim izchil tashkil etilayotganligining natijasi edi;

-Markaziy shifoxonalar, bolalar bo'limlari va qishloq vrachlik punktlari ta'mirlandi va jihozlandi. (Zafarobod tumani markaziy kasalxonasining shoshilinch tibbiy yordam bo'limi, Zarbdor tumani markaziy kasalxonasining terapiya bo'limi, Baxmal tumani markaziy kasalxonasining bolalar bo'limi, tuman sil kasalliklari dispanseri, Mustaqillik va Yangi bog' Qishloq vrachlik punktlari, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy Markazi Jizzax filiali, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Jizzax filiali, Respublika "Salomatlik instituti"ning Jizzax filiali[23.3-b] Jizzax shahridagi 2-sonli oilaviy poliklinikasi, Mirzacho'l tumani markaziy kasalxonasi, Paxtakor tumani markaziy shifoxonasining shoshilinch tibbiy yordam bo'limi[24.5-b], Yangiobod tuman markaziy kasalxonasining binosi, viloyat qon quyish markazi binosi, Zomin tumani sil kasalliklar dispanseri binosi kapital, Arnasoy tumani markaziy kasalxonasining bolalar va poliklinika bo'limi;

-Zamonaviy tibbiy diagnostika markazi tashkil etildi. Diagnostika markazi qurilishiga va yuqori tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlashga 1,5 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflandi. (Kompyuter tomografiyasi, fibrogastroduodenoskopiya, elektrokardiografiya, otoskopiya singari 15 xildagi diagnostik tekshiruv apparatlar)[25];

-Turli grantlar asosida viloyatimiz shifoxonalari zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlandi. Misol uchun, Arnasoy tuman markaziy kasalxonasiga Yaponiya granti orqali 77 ming AQSH dollariga teng bo'lgan zamonaviy tibbiyot apparatlari olingan[26.5-b];

-G'allaorol tumanida "Marjon suvi" urush va mehnat faxriylari sanatoriyasi[27.13-b] foydalanishga topshirildi;

- DSENM laboratoriyalari zamonaviy sanitariya-epidemiologiya jihozlari bilan ta'minlandi;
- Tibbiyot kollejlarning o'qituvchilari malakalarini oshirish tizimi mustahkamlandi.

Infratuzilmaning tiklanishi birlamchi tibbiy xizmatning hududlar kesimida samarali faoliyat yuritishini ta'minladi.

6. Toza ichimlik suvi va atrof-muhit sog'lomligini ta'minlash

Aholining sanitariya-ekologik xavfsizligini ta'minlash maqsadida:

- 100 km dan ziyod ichimlik suvi tarmoqlari qayta ta'mirlandi yoki yangidan qurildi;
- 19 ta aholi punktiga tabiiy gaz yetkazib berish tizimi yangilandi;
- Sanitariya-epidemiologik monitoring kuchaytirildi;
- Korxonalarda mehnat gigienasi va xavfsizlik bo'yicha attestatsiya o'tkazildi;
- Ommaviy obodonlashtirish ishlari yo'lga qo'yildi.

7. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish

Dastur doirasida:

- Aholi o'rtasida yengil atletika marafonlari va ommaviy sport tadbirlari;
- Xotin-qizlar o'rtasida gimnastika musobaqalari;
- Oilaviy sport festivallari tashkil etildi. Bu tadbirlar aholi sog'lom faolligini oshirishga xizmat qildi.

Ammo, dastur ijrosi bo'yicha yutuqlar bilan bir vaqtda ayrim kamchiliklarga ham yo'l qo'yilgan. Misol uchun Zomin tumanida sil kasalliklari dispanseri binosi homiylar mablag'lari hisobidan ta'mirlanishi rejalashtirilgan edi, biroq bu ishlar amalga oshirilmay qolib ketgan. Yana bir masala, dastur asosida yil davomida 4 ta tibbiyot kollejlari talabalariga "Sihat-salomatlik yili" stipendiyasi joriy qilinishi belgilangan edi. G'allaorol tibbiyot kolleji talabalaridan 10 nafariga homiylar hisobidan stipendiyalar berilmasdan qolgan[28.7-v]. Shuningdek, shahar va tumanlardagi muhtoj nogironlarga homiylar tomonidan protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari uchun belgilangan mablag'lar ham berilmaganligini arxiv materiallari orqali bilishimiz mumkin. Shu kabi kamchiliklarga qaramasdan viloyatimizda dastur ijrosi ancha samarali tashkil etildi. Sog'liqni saqlash sohasi institutsional rivojlanish jarayonini boshladi.

Xo'sh, viloyatimizda dastur doirasida olib borilgan ishlar ko'lamining rivojida sog'liqni saqlash sohasida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarning o'rni va ularning dastur samaradorligiga qo'shgan hissasi qanday edi? Tadqiqotimizda ko'tarilgan eng muhim masala ham shu aslida.

2005-yil "Sihat-salomatlik yili" Davlat dasturi amalga oshirilgan davrda Jizzax viloyati Sog'liqni saqlash tizimining deyarli barcha bo'g'inlarida xotin-qizlar yetakchi o'rinlarni egallab,

dasturning mazmun-mohiyatini takomillashtirish va profilaktik ishlarni samarali tashkil etishda asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi. Xususan, ular:

Birinchi. Tibbiyot muassasalarida yetakchi kadr sifatida-

Viloyatdagi barcha shifoxona, poliklinika, qishloq vrachlik punktlari va FABlar tarkibida xotin-qizlar yuqori ulushni ta'minlagan. Jumladan:

-akusher-ginekologlar, pediatr va oliy shifokorlar tarkibining asosiy qismini ayollar tashkil etdi;

-o'rta tibbiyot xodimlari-hamshiralar, akusherlar va feldsherlarning ham aksariyati xotin-qizlar edi;

-aholi bilan bevosita ishlaydigan tibbiy targ'ibotchi kadrlar tarkibida ham ustunlik qilshgan. Shunday qilib, ayol shifokorlar va hamshiralar patronaj xizmatini olib bordi, profilaktik ko'riklarni tashkil etdi, sanitariya-ma'rifiy ishlar bilan shug'ullandi, o'lis hududlarda aholi salomatligini ta'minlashga mas'ul bo'ldi. Bu holat dasturning asosiy maqsadlaridan biri-ona va bola salomatligini mustahkamlash yo'nalishida yuqori samaradorlikka erishishni ta'minladi.

Ikkinchi. Ona-bola salomatligini muhofaza qilishda yetakchi kuch sifatida-Ayol akusher-ginekolog va neonatolog, pediatr mutaxassislar:

-xavfsiz tug'ruqni ta'minlash;

-homiladorlik monitoringi;

-yangi tug'ilgan chaqaloqlarning skriningi;

-kamqonlikni kamaytirish dasturlarida asosiy amaliy kuch bo'ldi. Bu omil bolalarda rivojlanishni kuzatish, kasalliklarni erta aniqlash va emlash kampaniyalarining barqaror o'tishini ta'minladi. Ona va bola salomatligi bo'yicha targ'ibot ishlari ham asosan xotin-qizlar tomonidan amalga oshirildi. Bu aholi bilan manzilli ishlashda ishonch va samaradorlikni kuchaytirdi.

Uchunchi. Reproktiv salomatlik va oilaviy madaniyatni shakllantirishda faol ishtirok etishdi -Ayol pedagoglar, shifokorlar:

-oilaviy rejalashtirish,

-kontrasepsiya vositalari haqida tushuntirish,

-ona salomatligi bo'yicha seminarlar kabi tashkiliy ishlar bilan shug'ullandilar.

To'rtinchi. Profilaktika va sanitariya sohasida-Sanitariya-epidemiologiya stansiyalari va ular tarkibidagi laboratoriyalardagi mutaxassislarning katta qismini ham xotin-qizlar tashkil etadi.

Ular:

-ichimlik suvining sanitar nazorati;

-oziq-ovqat xavfsizligi;

-bolalar va ta'lim muassasalarining sanitariya holati;

-yuqumli kasalliklarni erta aniqlash kabi yo‘nalishlarda yuksak mas‘uliyat bilan yondishib, mahallalarda sanitariya targ‘iboti, shaxsiy gigiena bo‘yicha o‘quv va amaliy mashg‘ulotlarni asosan ayol mutaxassislar olib bordi.

Beshinchidan. Ma‘rifiy-targ‘ibot ishlarining asosiy ijrochilari

-mahalla faollari va Qizil Yarim Oy jamiyati ayol volontyorlari sanitariya, gigiena, ekologiya, yuqumli kasalliklar profilaktikasi bo‘yicha doimiy tadbirlar o‘tkazdi.

Oltinchidan. Tibbiy ta‘lim va kadrlar tayyorlashda xotin-qizlar ishtiroki

-tibbiyot kollejaridagi ayol pedagoglar: amaliy mashg‘ulotlar, profilaktik dasturlar, ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda faol ishtirok etdilar.

“Sihat-salomatlik yili” Davlat dasturining viloyatimizda ijobiy va samarali tashkil etilishiga, hamda sog‘liqni saqlash tizimining rivojiga o‘zlarining kamtarona hissalarini qo‘shgan ayol shifokor va hamshiralarimizdan Viloyat kardiologiya dispanseri hamshirasi Nigora Asadova[29.3-b], Arnasoy tumani markaziy kasalxonasi bosh hamshirasi Munira Sindorova[30.3-b], G‘allaorol tumani markaziy shifoxonasi oliy toifali hamshirasi Gulsara Haydarova[31.5-b], “Marjon suvi” sihatgohi hamshiralari Gulchehra Sattorova, Nodira Tangmatova, Xosiyat Islomova[32.5-b] lar, Baxmal tumani markaziy tug‘ruqxonasi homiladorlik patologiyasi bo‘limi boshlig‘i Ra‘no Davlatova[33.5-b], Viloyat akuserlik (perinatal) muassasasi bosh hakimi Dildora Rashidova, akusher-ginekolog M.Fiyosova, M.G‘iyosova, S.Olimjonova, D.Parmonova, U. Usmonqulova, F.Mansurova kabi shifokor va hamshiralalar[34.5-b] va Paxtakor tumani Akmal Ikromov qishloq vrachlik punktining shifokori Mamlakat Mo‘minova[35] kabi xotin-qizlar dasturning amaliy ijrosini ta‘minlashda, profilaktik ishlarning asosiy ijrochisi bo‘lib tibbiy xizmat sifatini oshirishda, ona-bola salomatligi ko‘rsatkichlarini yaxshilashda hal qiluvchi o‘rin tutgan.

Ya‘ni, bir so‘z bolan aytganda, ular faoliyati Jizzax viloyatida sog‘liqni saqlash tizimi rivojining muhim ijtimoiy va institutsional omillaridan biri bo‘ldi. Dastur ijrosida xotin-qizlarning ishtiroki uning samaradorligini tasdiqlovchi asosiy inson kapitali sifatida namoyon bo‘ldi. Ular amalga oshirgan profilaktika, tashkiliy, ma‘rifiy va rehabilitatsion ishlar viloyatda sog‘liqni saqlash tizimining barqaror rivoji uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Xulosa. “Sihat-salomatlik yili” Davlat dasturining Jizzax viloyatida amalga oshirilishi viloyat sog‘liqni saqlash tizimini yaxlit isloh qilish, profilaktikaga asoslangan tibbiy xizmatni kuchaytirish va aholi salomatligini mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi. Dastur natijasida:

- tibbiy infratuzilmaning moddiy-texnika bazasi kuchaytirildi;
- ona va bola salomatligi yo‘nalishida tizimli mexanizmlar joriy etildi;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini qo‘llab-quvvatlash kuchaytirildi;
- epidemiologik barqarorlikni saqlashga qaratilgan choralar samara berdi;
- sog‘lom turmush tarzi madaniyati jamiyatda keng ommalashdi.

To'g'ri, dastur ijrosini amalga oshirish jarayonlarida ba'zi kamchilklarga yo'l qo'yildi, biroq, "Sihat-salomatlik yili" dasturi kelgusi yillarda qabul qilingan milliy salomatlik strategiyalari uchun mustahkam poydevor yaratdi va sog'liqni saqlash sohasida barqaror tizimiy o'zgarishlarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. I.A. Karimov. //Jizzax haqiqati, 01.09.2005-yil, № 71-72-son (4513-4514), 13-b
2. "Sihat -salomatlik yili" davlat dasturini shakllantirish borasida tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-2095 sonli farmoyishi.lex.uz/mact/43699 (Ushbu farmoyish 22.02.2021-yil o'z kuchuni yo'qotgan); O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-31, 33-varaq.
3. "Sihat -salomatlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi VQ-30-sonli qarori.lex.uz/uz/docs/436 (Ushbu qaror 22.02.2021-yil o'z kuchuni yo'qotgan);
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 14-varaq
5. To'ychi Ismoilov, ("Sihat-salomatlik yili" viloyat dasturi monitoring guruhi rahbari.) Davlat dasturi uning ijrosiga barchamiz mas'ul //Jizzax haqiqati, 18.06.2005-yil, № 50-son (4492), 4-b
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 20-varaq
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 18-varaq
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 19-varaq
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 21-varaq
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 24-varaq
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 22-varaq
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 23-varaq
13. O'sha manba
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 25-varaq

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 26-varaq
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 25-varaq
17. O'sha manba
18. Rasulmetova Zaynab (Jizzax Shahar silga qarshi kurash dispanserining bo'lim mudiri, oliy toifali fiziatr). Silni davolashda DOTS dasturi. //Jizzax haqiqati, 17.01.2004-yil, № 6-son (4328), 7-b
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-20, 29-varaq
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-7, 5-varaq
21. //Jizzax haqiqati, 18.06.2005-yil, № 50-son (4492), 5-b
22. Po'lat Boboyev (viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari). Qishloqning zamonaviy tibbiy muassasasi. //Jizzax haqiqati, 01.09.2005-yil, № 71-72-son (4513-4514), 13-b
23. Tibbiy madaniyat salomatlik asosi. //Jizzax haqiqati, 26.01.2005-yil, № 9-son (4451), 3-b
24. //Jizzax haqiqati, 18.06.2005-yil, № 50-son (4492), 5-b
25. Eng ko'rkam tibbiy koshona //Jizzax haqiqati, 19.10.2005-yil, № 86-son (4528)
26. //Jizzax haqiqati, 18.06.2005-yil, № 50-son (4492), 5-b
27. Toshqul Beknazarov. Tog'lar va bog'lar qo'ynidagi sihatgoh. //Jizzax haqiqati, 01.09.2005-yil, № 71-72-son (4513-4514), 13-b
28. O'zbekisto Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Jizzax viloyat hokimligi arxivi. Fond-M-448, ro'yxat-1, yig'ma jild-7, 7-varaq
29. Qo'lingiz dard ko'rmasin. //Jizzax haqiqati, 26.01.2005-yil, № 9-son (4451), 3-b
30. //Jizzax haqiqati, 26.01.2005-yil, № 9-son (4451), 3-b
31. Dard ko'rmasin hayotbaxsh qo'llar //Jizzax haqiqati, 18.06.2005-yil, № 50-son (4492), 5-b
32. //Jizzax haqiqati, 18.06.2005-yil, № 50-son (4492), 5-b
33. Asatulla Kattabekov. Tabiatning go'zal "asar"i. //Jizzax haqiqati, 18.06.2005-yil, № 50-son (4492), 5-b
34. Nasiba Qarshiboyeva. Jizzax shaxridagi Ko'tarma mahallasi. Ta'zim sizga yaxshilar //Jizzax haqiqati, 18.06.2005-yil, № 50-son (4492), 5-b
35. Eng ko'rkam tibbiy koshona //Jizzax haqiqati, 19.10.2005-yil, № 86-son (4528)